

“ONA OBRAZI: SOZ VA HAQIQAT ZIDDIYATI”

Vahobiddin Gaybulloyev
ToshDOTAU talabasi

Annotatsiya: Ushbu maqolada ona obrazi jamiyatda uluglanadigan, biroq kundalik hayotda kopincha sukutdagi fidoiy sifatida namoyon boladigan timsol sifatida tahlil qilinadi. Tadqiqot Javlon Jovliyevning hikoyasi asosida olib borilib, unda mehnatkash, ozini unutgan va ichki fojiani boshidan kechirayotgan ona obrazi badiiy va ijtimoiy jihatdan yoritiladi. Hikoyadagi ayol qiyofasi diniy, tarixiy va zamonaviy qarashlar bilan qiyoslab organiladi.

Maqolada Sharq va Garb jamiyatlarida ayol va ona timsoliga bolgan munosabatlar solishtirilib, Sharqda onalik ruhiy jihatdan uluglanishi, ammo amaliy hayotda yetarli darajada etibor berilmasligi, Garbda esa ayol huquqlari kengroq taminlansa-da, onalikning manaviy mohiyati bazan ikkinchi planga tushib qolishi tahlil qilinadi. Hadislarda bayon etilgan onaga bolgan yuksak hurmat, tarixiy shaxslar hayotidagi ayol va ona mavqei hamda bugungi ijtimoiy voqelik ortasidagi farqlar ochib beriladi.

Shuningdek, onaning farzand tarbiyasidagi beqiyos orni, uning jamiyat manaviy poydevorini shakllantirishdagi roli misollar orqali yoritiladi. Tadqiqot natijasida ona nafaqat oilaning, balki jamiyatning ham yuragi ekani, biroq u kopincha sozda uluglanib, hayotda etiborsiz qolayotgani xulosalanadi.

Kalit sozlar: ona va ayol, jamiyat, manaviy va ruhiy kuch, hadis, ona va ayol roli

“THE IMAGE OF THE MOTHER: THE CONTRADICTION BETWEEN WORDS AND REALITY”

Abstract: This article examines the image of the mother as a sacred yet often overlooked figure in society, revealing the contradiction between words of reverence and lived reality. Based on Javlon Jovliyevs short story, the study explores the silent sacrifices, emotional exhaustion, and social invisibility of women who embody motherhood in everyday life. The literary image of the working, self-forgetting mother is analyzed alongside religious, historical, and social perspectives on women and motherhood.

The article compares the perception of women and mothers in Eastern and Western societies, highlighting how the East traditionally glorifies motherhood spiritually, while often neglecting its practical support, whereas the West emphasizes womens rights and independence but may weaken the emotional depth of motherhood. Through references to

Hadiths, historical examples, and modern social realities, the paper discusses how respect for mothers has evolved over time and how it is expressed today.

Special attention is given to the mothers role in child upbringing, moral education, and the spiritual formation of society. The article argues that a mother is not only the foundation of the family but also the moral core of society. Ultimately, the study reveals that despite being praised in speech, mothers often remain unprotected and unheard in real life, making their quiet endurance one of the most powerful yet unrecognized forces shaping human development.

Keywords: *mother, woman, society, moral and spiritual strength, Hadith, the role of mothers and women.*

Kirish

Ona — insoniyat tarixida eng kop tilga olinadigan, eng kop uluglanadigan va ayni paytda eng kop sukutda qoladigan timsoldir. Inson dunyoga kelishi bilan ona mehrini his etadi, uning bagrida ulgayadi va hayotni shu mehr orqali anglay boshlaydi. Sharq tafakkurida ona muqaddaslik darajasiga kotarilgan, hadislarda uning maqomi jannat bilan qiyoslangan. Biroq bugungi hayot manzaralariga nazar tashlasak, bu ulug tushuncha bilan kundalik voqelik ortasida keskin tafovut borligini koramiz.⁶⁸

Javlon Jovliyevning hikoyasi aynan mana shu ziddiyatni ochib beruvchi kuchli badiiy asardir. Hikoyada ona timsoli balandparvoz sozlar bilan emas, balki ogir mehnat, charchoq, etiborsizlik va sukut orqali tasvirlanadi. Bu asar ona haqidagi tasavvurlarimizni qayta korib chiqishga, sozda uluglangan onaning hayotda qanday yashayotgani haqida chuqur oylashga undaydi.

Mazkur maqolada ona obrazi diniy, tarixiy, ijtimoiy va badiiy nuqtayi nazardan tahlil qilinadi. Sharq va Garb jamiyatlarida ayol va ona timsoliga bolgan munosabatlar qiyoslanadi, tarixiy manbalar va bugungi ijtimoiy holatlar asosida ona maqomining ozgarishi yoritiladi.

1. Javlon Jovliyev hikoyasida ona obrazi

Hikoyadagi ayol obrazi — jamiyatda koplal onalarga xos bolgan, koz ongimizda yashab, biroq kopincha sezilmaydigan ona timsolining umumlashgan qiyofasidir. U nafaqat jismonan, balki ruhan ham tinimsiz mehnat qiladi. Kun boyi dalada ogir ish bilan band bolib, kechqurun esa uy yumushlari, bolalar parvarishi va erining ehtiyojlari bilan yashaydi. Uning hayoti oz istaklari atrofida emas, balki atrofdagilar talabiga kora shakllangan. Ona bu yerda shaxs sifatida emas, balki vazifa bajaruvchi, oila yukini kotaruvchi kuch sifatida qabul

⁶⁸ Said Ahmad. Ufq. ----- Toshkent: Adabiyot va sanat, 2015. B. 50.

qilinadi. Uning charchogi tabiiy hol, sukuti esa odatiy deb qaraladi. Eng achinarlisi shundaki, ayolning ichki iztirobi, ruhiy holati va insoniy ehtiyojlari hech kimni qiziqtirmaydi. U oziining ogriqlarini yashirishga, sabr qilishga majbur. Bu sabr esa jamiyat tomonidan fazilat sifatida baholanadi, ammo aslida u onaning yolgizligi va tushunilmayotganidan dalolat beradi. Hikoyada ona hayoti shu tarzda sukut va fidoyilik bilan otadi.⁶⁹

Asarning eng tasirli va ramziy jihati — onaning tugilgan kuni bilan bogliq epizoddir. Tugilgan kun odatda inson hayotida quvonch, etibor va mehr bilan boglanadi. Ammo bu hikoyada ona uchun tugilgan kun ham yana bir masuliyatga, yana bir qurbonlikka aylanadi. U tort kunlik mashaqqatli mehnati evaziga topgan pulini oziga emas, bolalarining quvonchi va erining xohishi uchun sarflaydi. Bu hol onaning ozi qanchalik unutganini, hatto bir kun bolsa ham ozi oylashga jurat eta olmasligini korsatadi.

Onaning “Tugilgan kunim... tugilgan kunim...” deya ichkilik ichishi esa butun hikoyaning eng ogriqli nuqtasidir. Bu sozlar bayramona quvonch emas, balki yillar davomida ichida toplangan alam, yolgizlik va etiborsizlikning jim qichqirigidir. Bu — etibor talab qilayotgan, ammo uni sorab olishga ham odatlanmagan onaning kechikkan etirofidir. Mazkur epizod orqali muallif ona timsolining jamiyatdagi real holatini ochib beradi: ona doim beruvchi, lekin kamdan-kam hollarda oluvchi; sabrli, ammo eshitilmaydigan; sozlarda uluglangan, ammo hayotda tushunilmaydigan insondir. Bu obraz orqali hikoya nafaqat bitta ayolning taqdirini, balki jamiyatdagi minglab onalarning sukutdagi fojiasini yoritadi.

2. Sharq va Garbda ayol va ona timsolining qiyosi

Sharq jamiyatlarida ona va ayol timsoli asrlar davomida muqaddaslik, hurmat va etiqod bilan uygun holda talqin qilib kelingan. Islom talimotida ayolning shani, huquqlari va onaning maqomi Quroni karim oyatlari hamda Paygambarimiz Muhammad sollallohu alayhi vasallam hadislarida aniq va ravshan belgilab berilgan. Ayniqsa, “Jannat onalar oyogi ostidadir” degan hadis Sharq tafakkurida onaning nafaqat oila ichidagi, balki butun jamiyat hayotidagi yuksak maqomini ifodalaydi. Bu qarashga kora, ona — mehr, sabr va fidoyilik timsoli bolib, inson kamolotining asosi sifatida koriladi.⁷⁰ Tarixga nazar tashlasak, Sharq ayoli faqat uy-rozgor doirasida cheklanib qolmaganini koramiz. Amir Temur davridagi Bibixonim, Qoqon xonligidagi Nodirabegim kabi ayollar nafaqat oz oilasining tayanchi, balki davlat ishlarida ham faol ishtirok etgan, siyosiy va madaniy hayotga sezilarli tasir

⁶⁹ Javlon Jovliyev. Ayol. —Toshkent: Davr, 2024. — B . 3.

⁷⁰ Tohir Malik. Doka romol qachon quriydi. T.: “Hilol-Nashr”, 2017. — B . 70.

korsatgan. Bu ayollar timsolida Sharq ayolining aql-zakovati, masuliyati va yetakchilik salohiyati namoyon boladi.⁷¹

Biroq bugungi Sharq jamiyatida bu yuksak goyalar amaliy hayotda har doim ham oz ifodasini topayotgani yoq. Ona kopincha sabr qilishga, sukut saqlashga majbur shaxs sifatida qabul qilinadi. Uning ruhiy holati, charchogi, ichki kechinmalari kopincha tabiiy hol sifatida baholanib, jiddiy etiborga olinmaydi. Aynan shu jihat Javlon Jovliyev hikoyasidagi ayol obrazida yorqin aks etadi. Hikoyadagi ona jamiyat tomonidan muqaddas deya etirof etilsa-da, real hayotda uning ehtiyojlari va his-tuygulari kopincha korinmas bolib qoladi. Garb jamiyatlarida esa ayol timsoli asosan huquq, erkinlik va shaxsiy mustaqillik asosida talqin qilinadi. Ayol jamiyatning teng huquqli va faol subyekti sifatida tan olinadi, uning talim olishi, mehnat qilishi va ozini namoyon etishi qollab-quvvatlanadi. Bu jihatdan Garb ayoli ijtimoiy faolligi bilan ajralib turadi. Biroq bu modelda ham muayyan muammo mavjud: onalikning manaviy va ruhiy mohiyati bazan ikkinchi darajaga tushib qoladi, ona faqat ijtimoiy rol yoki majburiyat sifatida talqin etilishi mumkin.

Shunday qilib, Sharq va Garb qarashlarini qiyoslaganda muhim xulosa yuzaga keladi: Sharqda ona muqaddas deya uluglanadi, biroq kopincha jim va etiborsiz qoladi; Garbda esa ayol erkin va faol bolsa-da, onalikning ichki ruhiy yukini toliq anglash har doim ham taminlanmaydi. Javlon Jovliyev hikoyasidagi ayol obrazi aynan shu ziddiyatni ochib berib, ona timsolining bugungi jamiyatdagi murakkab va kop qirrali holatini chuqur ifodalab beradi.⁷²

Tarix davomida ayol va onaga bolgan munosabat har doim ham bir xil va barqaror bolmagan. Insoniyat taraqqiyotining ayrim davrlarida ayol kamsitilgan, uning jamiyatdagi orni past baholangan. Xususan, islomdan avval ayrim jamiyatlarda qiz farzand xorlik belgisi sifatida qabul qilinib, hatto tiriklayin komilgan holatlar ham mavjud bolgan. Bu holat insoniylik va adolat tamoyillariga mutlaqo zid edi. Islom dini aynan ana shunday zulmatli qarashlarga barham berib, ayolni sharafligini va muqaddas maqomga kotardi. Quroni karim oyatlari va Paygambarimiz Muhammad sollallohu alayhi vasallam hadislarida ayolning, ayniqsa onaning hurmati alohida takidlandi. Paygambarimiz sollallohu alayhi vasallamning hayotlariga nazar tashlasak, ayollarga va onalarga bolgan hurmat faqatgina sozda emas, balki amaliy harakatlarda ham namoyon bolganini koramiz. U zot onani ezozlashni iymon belgisi sifatida korsatgan, ayollarning fikrini tinglagan, ularning jamiyatdagi ornini

⁷¹ Otkir Hoshimov. Ikki eshik orasi. — Toshkent: Asaxiy, 2025. — B . 120.

⁷² Mirkarim Osim. Zulmat ichra nur: Mushtum, 1995. — B . 85.

mustahkamlashga intilganlar. Bu jihatlar islomda ona va ayolga bolgan munosabatning naqadar yuksak ekanini korsatadi. Biroq bugungi kunga kelib, onaga bolgan hurmat kopincha soz va madh darajasida qolib ketayotgani achinarli holatdir. Ona uluglanadi, sher va nutqlarda ezozlanadi, ammo uning kundalik mehnati, ruhiy charchogi va ichki iztiroblari yetarlicha qadrlanmaydi. Jamiyat onadan sabr va fidoyilikni talab qiladi, biroq uning inson sifatidagi ehtiyojlarini kopincha inkor etadi.

Javlon Jovliyev hikoyasidagi ona obrazi ana shu zamonaviy muammoning badiiy ifodasidir. U tarixda uluglangan, din va madaniyatda muqaddas sanalgan ona timsolining bugungi hayotdagi real holatini korsatadi. Bu obraz orqali muallif jamiyatni oylashga undaydi: biz onani faqat ulug sozlar bilan ezozlayapmizmi yoki uning hayotdagi ogir yukini ham anglay olyapmizmi? Shu savol hikoyaning va mazkur maqolaning asosiy goyaviy markaziga aylanadi.

3. Onaning jamiyat va farzand tarbiyasidagi orni

Ona — jamiyatning manaviy tayanchi, inson kamolotining boshlanish nuqtasidir. Farzand tarbiyasi, insoniy fazilatlar, sabr, fidoyilik va cheksiz mehr aynan onaning bagrida shakllanadi. Bola dunyoni avvalo onaning nigohi, uning ovozi va allasi orqali anglaydi. Shu bois ham ona tarbiyasi nafaqat bir oila, balki butun jamiyat taqdirini belgilovchi kuch hisoblanadi. Jamiyatda mehr-oqibat, sabr-toqat va insoniylik saqlanib qolayotgan bolsa, buning ildizi onaning qalbidan boshlanadi. Otkir Hoshimov ona allasini butun insoniyat tushuna oladigan yagona til sifatida tariflaydi. Haqiqatdan ham, ona va bola ortasidagi ruhiy bogliqlik hech qanday til, millat yoki hudud bilan chegaralanmaydi. Ona aytgan oddiygina alla bolaga tinchlik bagishlaydi, unga xavfsizlik va ishonch hissini beradi. Bu bogliqlik na ilm bilan, na mantiq bilan toliq izohlanadi — u tabiat tomonidan berilgan eng buyuk nematlardan biridir.⁷³

Javlon Jovliyev hikoyasidagi ona obrazi ham ana shu beqiyos ruhiy kuch egasi sifatida namoyon boladi. U kundalik hayotning mashaqqatlari ostida charchaydi, toliqadi, biroq oz odrigini oshkor etmaydi. Uning butun umri farzandlari atrofida aylanadi, yashashining manosi ham ular bilan bogliq. Aynan shu jihat onalik mohiyatining buyukligini ochib beradi: ona ozini unutib, farzandi uchun yashay oladigan yagona timsoldir. Hikoyadagi ona obrazi orqali muallif onaning sukutdagi qudratini, jamiyat kopincha sezmaydigan, ammo hayotni tutib turgan kuchini tasirchan tarzda ifodalaydi.

Xulosa

Xulosa qilib aytganda, ona obrazi bugungi jamiyatimizda ikki xil qiyofada namoyon bolmoqda: u sozlarda uluglanadi, qadri baland maqomlar bilan tarflanadi, biroq real

⁷³ Otkir Hoshimov. Dunyoning ishlari. — Toshkent: Davr, 2018. — B. 30.

hayotda kopincha jim, etiborsiz va anglanmagan holatda yashaydi. Javlon Jovliyev hikoyasi aynan mana shu ziddiyatni teran badiiy tahlil orqali ochib beradi. Asarda ona timsoli shovqinli noroziliklar bilan emas, balki sukut, sabr va ichki alam orqali tasvirlanadi. Bu sukut esa onaning zaifligi emas, balki jamiyat yukini yelkasida kotarib kelayotgan fidoiyligining ifodasidir. Hikoyadagi ona obrazi orqali muallif oquvchini chuqur mulohazaga chorlaydi: biz onani naqadar tushunayapmiz, uning ichki kechinmalariga qanchalik etibor qaratayapmiz? Ona faqatgina oilaning emas, balki butun jamiyatning yuragi hisoblanadi. Agar jamiyat onaning holatini anglamasa, uning mehnatini qadrlamasa, manaviy barqarorlik ham xavf ostida qoladi.

Shu bois, onani faqatgina madh etish, uni bayramlarda eslash bilan cheklanib qolmasdan, kundalik hayotda ham etibor, mehr va hurmat bilan asrash lozim. Chunki faqat ona baxtli bolgan jamiyatgina manaviy yetuk, ruhiy soglom va barqaror taraqqiyotga erisha oladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Tohir Malik. Doka romol qachon quriydi. T.: Hilol-Nashr, 2017. — 70 b.
2. O'tkir Hoshimov. Dunyoning ishlari. — Toshkent: Davr, 2018. — 30 b.
3. Said Ahmad. Ufq. ----- Toshkent: Adabiyot va sanat, 2015. 50 b.
4. Otkir Hoshimov. Ikki eshik orasi. — Toshkent: Asaxiy, 2025. — 120 b.
5. Javlon Jovliyev. Ayol. — Toshkent: Davr, 2024. — 3 b.
6. Mirkarim Osim. Zulmat ichra nur: Mushtum, 1995. — 85 b.